



VAKSINATSIYA JARAYONLARIGA KIRITILGAN ENG SO'NGGI O'ZGARISHLAR

Barchamiz kuzatib, bilib turibmiz: kun sayin jahonda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham koronavirus bilan kasallanganlar soni tobora ortib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, har kuni yuzlab, minglab odamlar shifoxonaga tushyapti. Afsuski, shifoxonada davolanayotganlar orasida hayotdan ko'z yumayotganlar ham bor...

– Bunday vaziyatda dunyo e'tirof etayotgan pandemiya, epidemiyaga qarshi kurashishning yagona yo'li – emlash hisoblanadi, – dedi Sanitariya-epidemiologiy o'soyishlik va jamoat salomatligi xizmati rahbari o'rinbosari Nurmat Otabekov yurtimizdagi vaktsinatsiya jarayonlariga kiritilgan eng so'nggi o'zgarishlar haqida bergan intervyusida. – Aholining 60-70 foizida jamoaviy immunitet shakllantirish ekanmiz, vaziyatga ijobiy ta'sir qilish imkonsiz.

Shu bois, joriy yilning 1-sentabr gacha 18 yoshdan yuqorilari ommaviy emlash tadbirlari boshlanadi. 1-bosqich 1-sentabrgacha; 2-bosqich 1-oktabrgacha va 3-bosqich 1-noyabrgacha amalga oshiriladi.

O'zbekistonda emlash jadvaliga muvofiq, 13 ta turdagi emlash mavjud. Uni Respublika Bosh sanitariya shifokori tasdiqlaydi. Shu asosda davlatga buyurtma beriladi va davlat bu jarayonni moliyalashtiradi.

Shuningdek, mavsumiy emlash turi mavjud. Bu muayyan kasallikning mavsumiy avj olishidan kelib chiqib emlanadi.

Bundan tashqari, dunyo hamjamiyatidagi singari epidemik ko'rsatma asosida emlash ham mavjud. Bu biror kasallik



avj olganda ommaviy emlashni nazarda tutadi.

Sog'lomlashtirib emlash turi ham mavjudki, bunda bemor davolanidan so'ng emlanadi.

Mohigul QOSIMOVA,
O'ZA



MUNOSABAT

O'TA YENGIL JAZO HAM ADOLATSIZLIK DEMAKDIR

Korrupsiya. Bu so'z keyingi paytlarda odamlar orasida tez-tez tilga olinadigan, la'natlanadigan so'zga aylandi. To'y-ma'raka bo'ladimi, transport vositalaridagi suhbatlar yoki ijtimoiy tarmoqlardagi mulohaza va tortishuvlar bo'ladimi, albatta, gap korrupsiyaga borib taqaladi. Ommaviy axborot vositalarida berilayotgan korrupsiyaga oid axborot va xabarlar ham unga qarshi kurash avj olayotganligidan dalolat beradi.

"O'tgan 4,5 yilda 9546 nafar shaxs turli toifadagi korrupsion jinoyatlarni sodir qilgan. Bu jinoyatlar oqibatida davlat va fuqarolar manfaatlariga yetkazilgan zarar miqdori 3 trillion 200 milliard so'mga yaqinni tashkil qiladi", deyiladi Bosh prokuratura tomonidan berilgan axborotlardan birida. Nazarimizda, bu hali hammasi emas. Bu aniqlangan, ochilgan jinoyatlarga daxldor raqamlardir. Ochilmasdan, xufiyonaligicha qolayotganlari borligiga ham hech qanday shubha yo'q.

Bugungi kunda yurtdoshlarimizni

qattiq tashvishlantirayotgan korrupsiya jinoyatlarining barchasini ochish uchun unga qarshi kurashuvchi davlat organlarining imkoniyati yetarli emas. Chunki bu toifadagi jinoyatlar o'ta yashirin, juda ustakorlik va uddaburonlik bilan amalga oshiriladi. Ammo, xalqimizda bir ajoyib hikmat bor: "Qing'ir ishingni qiyig'i qirg yildan keyin ham chiqadi".

Muhimi, davlatimiz rahbari korrupsiyaga qarshi keskin kurash olib bormoqda va turli imkoniyatlardan foydalanish, bu illatga qarshi davlat organlari vakolatlarni kengaytirish

choralarini ko'moqda. Shunday sa'y-harakatlarning navbatdagi Prezidentimizning 2021-yil 8-iyulda e'lon qilingan "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhiti yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvi korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonidir.

Farmonda mamlakat rivojlantirishining bugungi bosqichida korrupsiya O'zbekiston davlati va jamiyati taraqqiyoti uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biri ekanligi qayd etilgan holda, korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish va unga qarshi ayovsiz kurashish huquq-tartibot organlarining, barcha darajadagi davlat organlari rahbar va xodimlarining eng ustuvor vazifasi etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI YOSHLARNI HAR TOMONLAMA QO'LLAB- QUVVATLASH VA ULARNING IJTIMOY FAOLIGINI YANADA OSHIRISHGA OID QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida asosiy tayanchimiz bo'lgan azm-u shijoatli yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarida o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Ayniqsa, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim muassasalarini tamomlab, mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yigit-qizlarni munosib ish va daromad manbai bilan ta'minlash, ularga zamonaviy kasb-hunarlar, IT-texnologiyalarni o'rgatish, tadbirkorlikka keng jalb etish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Birgina 2021-yilning o'tgan davrida yoshlar bilan ishlashning mutlaqo yangi tizimi hisoblangan "Yoshlar daftari" va "Yoshlar dasturlari" asosida 430 ming nafar yigit-qizning hayotiy muammolarini hal etish uchun 300 milliard so'm mablag' yo'naltirilgani, 92 ming nafardan ziyod yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 2,3 trillion so'm imtiyozli kreditlar, qishloq joylarda yashayotgan 230 mingdan ortiq yoshlarga dehqonchilik bilan shug'ulla-

nishi uchun 61 ming gektar yer maydoni ajratilgani bu boradagi ishlarning ko'lami tobora kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Joriy yil 30-iyun kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston yoshlari va talabalari forumida ilgari surilgan yangi tashabbus va g'oyalarni amalga oshirish hamda "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini so'zsiz ta'minlash maqsadida:

1. 2021-yil avgust oyida "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning 18 yoshgacha bo'lgan har bir farzandi uchun Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 500 ming so'm miqdorida bir martalik moddiy yordam ko'rsatilsin.

Qoragalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimlari, sektor rahbarlari hamda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo'linmalari rahbarlari – "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning 18 yoshgacha bo'lgan farzandlari sonidan kelib chiqib, to'lov vedomostlari shakllantirilishi hamda tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari orqali ularga moddiy yordam pullarining o'z vaqtida va manzilli yetkazilishini ta'minlasin.

Davomi 2-sahifada.

qalarning mulkini o'zlashtirish yoki o'zlashtirish uchun shart-sharoit yaratib qo'yish, pora olish yoki pora berish orqali biron bir manfaatni qo'lga kiritish, mansabini suiste'mol qilish, xizmat vakolatidan chetga chiqish orqali kimsalarningdirlarini shikarib "rahmat" olish, xizmat vazifasiga sovuqonlik bilan qarash sharti bilan boshqalarga zarar yetkazish uchun imkoniyat yaratish, imtihon bahosini oshirib berish, kasalxonaga yo'llanmani navbatsiz hal etish, haj safariga navbatdan tashqari yuborish, turmush o'rtog'ining ukasini ishga joylab qo'yish va boshqa yo'llar bilan manfaat ko'rish harom luqma, harom manfaatdan hazar qilmay qolganligi bugungi kunda mamlakat rivojiga, xalq farovonligiga soya solmoqda.

Davomi 9-sahifada.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

FARMONI

YOSHLARNI HAR TOMONLAMA QO'LLAB-QUVVATLASH VA ULARNING IJTIMOYIY FAOLLIGINI YANADA OSHIRISHGA OID QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'IRISIDA

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

2. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra:

"Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan farzandlariga 2021/2022-o'quv yilida birinchi o'quv yili uchun to'lov-kontraktning to'liq summasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplab beriladi;

"Temir daftar" va "Ayollar daftri"ga kiritilgan oilalar farzandlari hamda "Yoshlar daftri"ga kiritilgan yoshlarga yangi turmush qurayotganida o'z xonadonida qo'shimcha uy-joy qurish uchun 33 million so'mgacha garovsiz kredit ajratiladi;

yosh oilalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida ipoteka dasturi doirasida boshlang'ich badal va foiz to'lovlari bo'yicha qo'shimcha 2 mingta yosh oilaga uy-joy sotib olishi uchun subsidiya ajratiladi.

3. Belgilansinki, 2021-yil 1-sentabrdan boshlab respublikadagi oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt asosida o'qiyotgan talabalar uchun Markaziy bankning asosiy foiz stavkasi miqdorida va o'qish muddati tugaganidan keyin yetinchi oydan boshlab 7 yil muddatda qaytarish shartlari asosida ta'lim kreditlari beriladi.

Moliya vazirligi (T.A.Ishmetov) Markaziy bank (M.B.Nurmuratov) hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A.X.Toshqulov) bilan birgalikda ikki hafta muddatda ta'lim kreditlarini berish tartibini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini kiritilsin.

4. Moliya vazirligi (T.A.Ishmetov) ikki oy muddatda:

oliy va professional ta'lim muassasalarida o'qish uchun tijorat banklaridan olingan ta'lim kreditlarini qoplashga yo'naltirilgan jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlariga soliq imtiyozlari qo'llanishini;

yosh oila tomonidan olingan ipoteka kreditlarini va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni er-xotin yoki ulardan birining yoshi belgilangan yoshdan oshguniga qadar har bir soliq davri davomida tegishli miqdorda qoplashga yo'naltirilgan ish haqi va boshqa daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilinishini nazarda tutuvchi qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

5. Davlat organlari, tashkilot va muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining yuqori 500 talik ro'yxatiga kiritilgan xorijiy oliy ta'lim muassasalarini (bakalavriat, magistratura) tamomlagan yoki ularda ilmiy daraja (PhD) va unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy daraja) olgan yosh mutaxassislarining lavozim maoshiga Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 1-ilovaga muvofiq

qo'shimcha ustamalar to'lab borish tartibi joriy etilsin.

Belgilansinki: nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining yuqori 500 talik ro'yxatiga kiritilgan xorijiy oliy ta'lim muassasalarini ro'yxatiga kiritilgan nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan aniqlanadiv uning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi;

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan o'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ustamalar ta'tbiq etiladigan ta'lim yo'nalishlari, tor mutaxassisliklar hamda davlat organlari, tashkilot va muassasalarini ro'yxatiga kiritilgan, o'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ustamalar 2021-yil 1-oktabrdan boshlab Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, ish beruvchi va yosh mutaxassis bilan 3 yilgacha bo'lgan muddatga tuzilgan shartnoma asosida yosh mutaxassisning lavozim maoshiga qo'shimcha ravishda har oy to'lab beriladi.

6. 2021-yil 1-sentabrdan boshlab Toshkent shahrida Yoshlar biznes maktabi, 2022-yildan boshlab barcha hududlarda uning filiallari tashkil etilsin.

Quyidagilar Yoshlar biznes maktabining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin:

mamlakatimiz va chet elning yetakchi tadbirkor va biznes yurituvchilarini jalb etgan holda, yoshlarga tadbirkorlik faoliyati davomida yaxshi natijalarga erishish va biznes yuritishda xavf-xatarlardan himoyalash usullarini o'rgatish;

tadbirkorlikka qiziqqan yoshlarni biznes va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish, ularda zamonaviy biznes yuritish ko'nikmalarini shakllantirish, motivatsion biznes-seminarlar va treninglar tashkil etish.

Vazirlar Mahkamasiga bir oy muddatda Yoshlar biznes maktabi faoliyatini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilsin.

7. 2021-yil 1-oktabrdan boshlab yoshlarning "Biznesga birinchi qadam" startap g'oyalari tanlovlarini tashkil etish hamda har bir tuman va shaharda kamida uch nafardan g'olibga grantlar berish amaliyoti joriy etilsin.

Belgilansinki, eng yaxshi loyihalarning har biri uchun bazaviy hisoblash miqdori 200 baravarigacha grant mablag'lari beriladi va ular 2022-2023-yillarda Davlat byudjetidan 100 milliard so'm miqdorida qo'shimcha ajratiladigan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (J.A.Kuchkarov), Innovatsion rivojlantirish vazirligi (I.Y.Abdurahmonov), Moliya vazirligi (J.I.Abruyev), Yoshlar ishlari agentligi (A.Z.Sa'dullayev):

bir oy muddatda startap g'oyalari tanlovlarini ochiq va oshkora tashkil etish, loyihalarni baholash mezonlari va ularni

amalga oshirishni muvofiqlashtirish tartibini tasdiqlas;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimlari bilan birgalikda startap g'oyalarning amalga oshirilishiga ko'maklashsin.

8. "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJga yoshlarning yangi g'oyalari asosida ishlab chiqilgan innovatsion, startap va biznes loyihalarni moliyalashtirish vazifasi yuklatilsin.

Tiklanish va taraqqiyot jang'armasi "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJga ushbu bandeda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun 100 million AQSh dollari ekvivalenti miqdorida 7 yil muddatga 3 yil imtiyozli davrni o'z ichiga olgan holda, Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foiz bandga past qilib beriladi.

9. Xalq ta'limi vazirligi (Sh.X.Shermatov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A.X.Toshqulov) Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (U.N.Tashkenbayev) bilan birgalikda 2021/2022-o'quv yilidan bosqichma-bosqich umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari darslari Kembrij dasturi asosida o'tkazilishini hamda o'qituvchilarning ushbu dastur asosida qayta tayyorlanishini ta'minlasin.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh.M.Sadikov) 2021-yil yakuniga qadar barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarini yuqori tezlikdagi Internetga ulash ishlari to'liq yakunlasin.

10. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

yoshlar tomonidan ko'tarilgan taklif va tashabbuslar, muammo hamda masalalar yechimi yuzasidan har yili O'zbekiston Respublikasi yoshlari kuni arafasida Hukumatning dasturi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman va shahar hokimliklarining alohida hududiy dasturlari qabul qilinadi;

mazkur dasturlar yoshlarning bilim va kasb-hunar egallashi, ular uchun munosib ish va turmush sharoitini yaratish, ko'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlardan iborat bo'ladi.

Yoshlar ishlari agentligi (A.Z.Sa'dullayev) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 2022-yildan boshlab har yili 1-iyungacha qadar mazkur bandeda ko'rsatilgan Hukumat dasturi loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin, shuningdek, hududiy dasturlar qabul qilinishini tashkil qilsin.

11. Oliy Majlis Senatiga:

a) yoshlarga oid davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida:

mazkur qarorning 10-bandeda belgilangan Hukumat va hududiy dasturlarni o'z vaqtida ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va to'liq amalga oshirilishi yuzasidan ta'sirchan parlament nazoratini o'rnatish, bu borada xalq deputatlari Kengashlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

yoshlarga oid davlat siyosatining hududlarda amalga oshirilishi bo'yicha reyting tizimini joriy etish;

faol va tashabbuskor yoshlar orasidan yangi avlod zaxira kadrlarini shakllantirish;

xalq deputatlari Kengashlarida "Yoshlar parlamenti va killari maktabi"ni tashkil qilish;

b) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi bilan hamkorlikda:

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan rahbarlarning Oliy Majlis palatalari va tegishli xalq deputatlari Kengashlariga hisobot berib borish tartibini joriy etish;

"Biz parlamentda yoshlarni qo'llab-quvvatlaymiz" tashabbusini amalga oshirish;

xalq deputatlari Kengashlari tavsiyasi asosida yosh, fidoyi, azm-u shijoatli yoshlarni Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolariga birlashtirish tavsiyasi etilsin.

12. Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (O.A.Xasanov) Oliy Majlis Senati tomonidan shakllantirilgan yangi avlod zaxira kadrlarini Milliy kadrlar zaxirasiga kiritish hamda ularning rahbarlik lavozimlariga asosiy nomzod sifatida tavsiya etilishini ta'minlasin.

13. Belgilansinki, 2021-yil 1-sentabrdan boshlab hududlarda yoshlarni muntazam sport bilan shug'ullanishga jalb qilish maqsadida Olimpiya va Paralimpiya hamda Osiyo va Parasiyo o'yinlari, jahon, Osiyo va respublika chempionatlarida oxirgi 5 yilda g'olib va sovrindor (1-3 o'rin) bo'lgan sportchi-trenerlarga, shuningdek, o'lis va chekka hududlarda faoliyat yurituvchi sportchi-trenerlarga:

sport to'garaklarini tashkil etish uchun tuman va shaharlarda bo'sh turgan davlat mulki hisoblangan bino va inshootlar elektron savdolar o'tkazmagan holda, ushbu obyektga nisbatan belgilangan eng kam ijara to'lovi stavkasining 50 foizi miqdorida ijaraga beriladi;

sport to'garaklarini tashkil etish uchun sport inventarlari, buyumlari va jihozlarni xarid qilish uchun byudjet mablag'lari hisobidan subsidiyalar ajratiladi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2021-yil 13-iyul

kamida 100 nafar yoshlarni muntazam sport bilan shug'ullanishini tashkil etgan taqdirda mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdori 10 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda har oylik to'lov joriy etiladi.

14. 2021-yil 1-oktabrdan boshlab har yili yoshlarga mo'ljallangan badiiy asarlar mualliflarini rag'batlantirish maqsadida "Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi kitob" tanlovi tashkil etilsin.

Belgilansinki, tanlovda g'olib deb topilgan mualliflarga birinchi o'rin uchun – 100 million so'm, ikkinchi o'rin uchun – 75 million so'm, uchinchi o'rin uchun – 50 million so'm mukofot mablag'lari ajratiladi.

Moliya vazirligi (T.A.Ishmetov) mukofotlarni to'lash bilan bog'liq xarajatlarni 2021-yilda Yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan mablag'lar hisobidan amalga oshirilishini hamda 2022-yildan boshlab Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutilishini ta'minlasin.

15. O'zbekiston yoshlari va talabarlari forumida yoshlarga oid davlat siyosati sohasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida, to'liq hajmda va sifatli bajarilishi uchun shaxsan mas'ul ekanliklari ko'rsatib o'tilsin.

16. Yoshlar ishlari agentligi (A.Z.Sa'dullayev) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmon-dan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

17. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazirning o'rinbosari B.A.Mu-sayev hamda Yoshlar ishlari agentligi direktori A.Z.Sa'dullayev belgilansin.

Farmon ijrosini har chora-kamda muvofiq qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A.Abduxaitov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi to'g'risida 2021-yilning 31-dekabr kuniga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berilsin.

Sh. MIRZIYOYEV

Orzularingizga MEHNAT VA HAŴAS ORQALI ERISHDIM

Yoshlar ittifoqi har jabhada faol, bilimli yoshlarni birlashtiradi, ularni munosib qoʻllab-quvvatlaydi. Joriy yilda ham Ittifoq bir qancha faol aʼzolariga oliy taʼlim muassasalariga imtiyozli asosda oʻqishga kirish uchun yoʻllanma berdi. Ular orasidan Ittifoqning Yozyovon tumani kengashi raisi Feruza Raimjonova ham bor.

U 1991-yil 28-mayda Fargʻona viloyati, Yozyovon tumanida tugʻilgan. Feruza Raimjonovaga bir nechta savollar bilan murojaat etdik.

– Sizni boʻlgʻusi talabalik baxti bilan qutlaymiz! Biz uchun qiziq, bunday imtiyozni olish tartibi qanday boʻladi?

– Rahmat! Imtiyozli talabalik tavsiyanomalar Vazirlar Mahkamasining "Oʻzbekiston Yoshlar ittifoqining faol aʼzolariga oliy taʼlim muassasalariga kirishda imtiyozlar berish toʻgʻrisida" gi 914-sonli qaroriga muvofiq, Yoshlar ittifoqi tizimidagi sardor, boshlangʻich tashkilotlardagi yoʻnalish yetakchilari, ikki yillik mehnat stajiga ega boʻlgan fidoyi yoshlarga tanlov asosida beriladi. Tanlov uch bosqichda boʻlib, tuman (shahar), hududiy va respublika miqyosida nomzodlarning hujjatlari koʻrib chiqildi, munosib deb topilganlarga imtiyozli tavsiyanomalar berildi. Men ham ular qatorida ekanimdan xursandman, bunday eʼtiborga javoban yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda bor imkoniyatlarimni ishga solaman.

– Qaysi oliy taʼlim muassasasini tanlamoqchisiz?

– Fargʻona davlat universitetida oʻqishni niyat qilganman. Oilam va farzandlarimdan uzoqqa ketolmayman. Yoʻnalish boʻyicha bir muhim qarorga kelganimcha yoʻq.

– Sizingcha, liderlik uchun eng asosiy talab nima?

– Balandroq parvozni orzu qilish befoyyda, kuchliroq qanotlarga ega boʻlish uchun harakat qilish kerak. Safning boshida tura olish ulkan masʼuliyat yuklaydi, lider masʼuliyatli boʻla olishi lozim. Liderlik uchun faqatgina yetakchilik qobiliyati kamilik qiladi. Yoʻlboshchi jamoadagilarga oʻrnak boʻlolsagina, atrofidagilar unga ishonch bildiradi. Qatʼiyat ham liderlarga xos sifat deb bilaman. 10 yildan ortiq vaqt davomida Yoshlar tashkilotida turli lavozimlarda faoliyat olib bordim. Koʻplab yoshlar yetakchilari, sardorlar bilan ishladim va bir narsaga amin boʻldimki, yaxshi sardorlar va yetakchilar jamoada yaqqol ajralib turadi, ularni kiyimlaridan ham farqlash mumkin, hattoki. Lider uchun muhimi shijoat va qatʼiyat bilan jamoasini yangi gʻalabalarga yetaklay olishdir. Haqiqiy lider – muvaffaqiyat yoʻlboshchisi.

– Oldinda boʻlish, yetakchilik qilish juda masʼuliyatli vazifa, ayniqsa, eng tashabbuskor yoshlar jamoasiga. Siz bu vazifani bajarishda nimadan kuch olasiz?

– 2020-yildan Yoshlar ittifoqining tuman kengashida raislik qilib kelaman. Jamiyatimizda rahbar ayollarga nisbatan biroz ishonchsizlik bilan qaraladi. Eng avvalo, ishimning uddasidan chiqib, boshqalarni koʻp narsa qoʻlimdan kelishi-ga ishonтира olishim kerak edi. Menimcha, uddaladim. Chindan, Ittifoqda doim



tashabbus va yangilik yaratiladi. Bu quvonarli hol, albatta. Shuning uchun ham yoshlar bilan ishlash menga zavq bagʻishlaydi. Oʻzimda doim yangilanishga tashnalik sezaman. Oʻzgarishga tayyor boʻlganlarga oʻzgartirishga qodir boʻladi, nazarimda. Bu yoʻlda qi-yinchiliklarga tayyor turish kerak. Men oilamdagilarning daldasi bilan oʻzimda kuch topaman. Ota-onamning duolari, ishonchi, turmush oʻrtogʻimning har qanday mashaqqatda yelkadoshligi, farzandlarimning umidbaxsh nigohlari meni doim yangi-yangi marralarga yetaklaydi.

– Agar sizga ish va hayotda eng muhim narsani tanlash imkoni berilganida...

– Men motivatsiya olish uchun qandaydir psixologik treninglarni tinglamayman. Axir atrofimiz harakat qilishga, olgʻa borishga undovchi narsalar, insonlarga toʻla. Men baxt formulamni oddiy kashf qildim: oʻzimning va yaqinlarimning salomatligi, atrofimdagilarning ishonchi va xotirjamlik. Moddiy ham kishi uchun zarur, lekin inson doim maʼnaviy boʻshliqni toʻldirishga intiladi. Men har qanday holatda ham oilam xotirjamligi, salomatligiga jiddiy qarayman. Intilishdan toʻxtab qolmaslik uchun oʻzimni doim ehtiyot qilaman. Bunga pandemiya davrida koʻproq amin boʻldim.

– Kelgusidagi rejalarigiz qanday?

– Yoshlar Ittifoqi yosh va kuchlilarini jamlagan. Bunday jamoada boʻlish fخر bagʻishlaydi. Men kelajagimni ham tamoman Yoshlar tashkiloti bilan bogʻlamoqchiman, chunki ishimni juda yaxshi koʻraman. Endi oʻz ustimda har galgidan koʻproq ishlashim kerak. Oliy maqsadim, Vatanim ravnaqiga hissa qoʻshish, kelgusida menga bildirilgan ishonchni oqlash.

OʻzJOKU talabasi
Jalol MIRZOZODA suhbatlashdi.



Toshkentda Markaziy Osiyo xalqaro instituti ochildi

2021-yil 15-iyul kuni "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bogʻliqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusida oʻtkazilayotgan xalqaro konferensiya doirasida Markaziy Osiyo xalqaro institutining rasmiy ochilish marosimi tashkil etildi.

Tadbirda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Narbayaeva, BMT Bosh kotibining Markaziy Osiyo boʻyicha maxsus vakili, Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya mintaqaviy markazi rahbari Natalya German va boshqa yuqori martabali mehmonlar ishtirok etdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Markaziy Osiyo xalqaro institutining rasmiy

ochilish marosimi qatnashchilariga yoʻllangan tabrigini Senat Raisi Tanzila Narbayaeva oʻqib eshittirdi.

Qayd etilganidek, mazkur institut davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilib, u mintaqa davlatlari hamkorligini har tomonlama kengaytirishga qaratilgan strategiya va dasturlarning yangi yoʻnalishlarini ishlab chiqishga koʻmaklashish, ularni ilmiy asoslangan holda chuqur tahlil va tadqiq

qilish bilan shugʻullanadi.

Qolaversa, mintaqa davlatlari oʻrtasidagi aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan izlanishlar, Markaziy Osiyo xavfsizligi bilan bogʻliq turli boshqa tahdid va muammolarni samarali hal etishga qaratilgan tizimli tadqiqot ishlarini olib boradi. Institut qoʻshni davlatlarning tashqi siyosat konsepsiyasi va maqsadlarini tahlil yondashuvlar asosida puxta oʻrganadi.


Bolalikdan buyuklik sari

Qoraqalpogʻistonning Beruniy tumanidagi qishloqlardan birida 3 yil muqaddam tashkil etilgan "Leader" klubida sportning "Karate WKF" turi boʻyicha ilgʻor sportchilar yetishib chiqmoqda. Klub asoschisi, yosh murabbiy Jayhun Ametov nafaqat respublikamiz, balki xalqaro miqyosida oʻtkazib kelinayotgan musobaqalarda lider ekanligini isbotlash maqsadida tinimsiz ter toʻkmoqda.

Jamoada peshqadamlik qilayotgan yosh sportchi Dostonbek Hamrayev joriy yil 19-20-iyun kunlari Toshkent shahrida oʻtkazilgan "Keles Open" nufuzli xalqaro musobaqasida munosib ishtirok etib, faxrli 1-oʻrinni qoʻlga kiritdi va oltin kamarga ega boʻldi.

Dostonbekni besh yoshida otasi buyuk maralarni koʻzlab sportga yoʻnaltirgan edi. Shundan buyon u bildirilgan ishonchni oqlab, musobaqalarda yuqori natijalarni qayd etib kelmoqda.

Xususan, u 2018-yilda karate boʻyicha -30 kg vazn toifasida Oʻzbekiston chempioni degan sharafli nomga sazovor boʻlgan. Oʻsha yili 19-20-dekabr kunlari



Qozogʻistonning Aqtau shahrida boʻlib oʻtgan "Aqtau kubogi" xalqaro turnirida 2-oʻrinni qoʻlga kiritdi.

— Ota-onam yaratib bergan imkoniyatlar, bobom-buvimning duolari va murabbiyim bildirgan ishonchni oqlash men uchun oltin medallardan ham muhimroq, — deydi 45 ta oltin, 20 ta kumush, 8 ta bronza medal sohibi Dostonbek Hamrayev. — Bu masʼuliyatli vazifa shu kungacha erishgan muvaffaqiyatimning tayanchi va oʻz ustimda tinimsiz ishlashga undovchi kuch, deya olaman.

Komila HAMROYEVA,
OʻzMU talabasi

IJODIY-MADANIY MASALALAR BO'YICHA TARG'IBOTCHI

uning ish samaradorligi qanday o'lchanadi?

Maktabga shoir kelar emish... Bu xabar yoshlarni, ayniqsa, ijodga qiziqadigan, kitob mutolaasiga ko'p vaqt ajratadigan o'g'il-qizlarni sergaklantiradi. O'quvchilar she'r-u hikoyalarni o'qigan, katta taassurotlar olgan ijodkorni o'z ko'zi bilan ko'rishni intizorlik bilan kutadi. Afsuski, bunday uchrashuvlar ilgari yilda bir marta yoki ikki marta o'tkazilardi, xolos.

Endilikda shoir-u yozuvchilarning kelishini intizorlik bilan kutishga hojat qolmadi. Sababi ularning o'zlari maktabda ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi bo'lib ishlay boshladi. Bundan, ayniqsa, yosh kitobxonlar juda quvonishmoqda. Endi savol tug'ilishi mumkin. Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchingin vazifasi nimalardan iborat? Ular qaysi kasb egalari orasidan tanlab olinadi?

Bu boradagi tanlov ham juda oqilona va odilona tarzda tashkil etilishi lozim. Sababi maktab o'quvchilari ma'naviyatini boyitish, aql-u tafakkurini shakllantirishda targ'ibotchingin o'rni va roli juda muhim. Shu paytga qadar bu vazifa ona tili va adabiyot fani o'qituv-

chilari zimmasida bo'lib, ular dars jarayonlariga ko'proq jalb etilgani bois, targ'ibotchilik masalalari ochiq qolib ketayotgan edi. Bu jihatdan biz ko'p narsani yo'qotganmiz, desak xato bo'lmaydi.

Prezidentimizning 2021-yil 26-martda "Ma'naviyat-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi va bu qaror asosida umumta'lim maktablarida ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimi joriy etildi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Jurnalistlar va Yozuvchilar uyushmalari tomonidan mahalliy hokimliklar hamda xalq ta'limi bo'limlari bilan hamkorlikda har bir umumta'lim muassa-

sasiga tegishli tavsiyalar asosida ijodkorlar – yozuvchi, shoir, jurnalist hamda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilaridan iborat targ'ibotchilar tanlab olinmoqda.

2021-yil 1-apreldan umumta'lim maktablarida davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 0,5 shtat birligi asosida ish boshlashi ko'zda tutilgan targ'ibotchi ijodiy qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchilarni aniqlash va saralash bilan shug'ullanadi. O'quvchilarning ijodiy ishlari bilan muntazam tanishib boradi, ularga ijodiy jihatdan yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Bundan tashqari ijodiy to'garaklar tashkil etadi va reja asosida mahorat saboqlarini olib boradi.

Targ'ibotchi yorqin iste'dodga ega bo'lgan o'quvchi-yoshlarni Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi tomonidan o'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan turli ijodiy



tanlovlarga jalb qiladi, ularning ijodiy ishlari adabiy nashrlariga tavsiya etadi.

Albatta, bu maktab o'quvchilari orasidan iqtidorli ijodkorlar yetishib chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Iste'dodli ijodkor o'quvchilarni atoqli adiblar nomidagi ijod maktablari faoliyati bilan yaqindan tanishtirish orqali kelajakda ularning ijod maktablarida ta'lim olishiga motivatsiya berishi shubhasizdir. O'quvchilar o'rtasida turli adabiy, ijodiy tanlovlar, festival va boshqa tadbirlar tashkil etilishi, maktabda kitobxonlikning rivojlanishi va kitob mutolaasini targ'iboti esa o'quvchi-yoshlarning ma'naviy barkamol bo'lib voyaga yetishida asosiy rol o'ynaydi.

Yangilik yaxshi narsa. Faqat yangilikni hayotga joriy etish, unga ko'nikish va qabul qilish biroz qiyin kechishi mumkin. Maktablarda ijodiy-madaniy

masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyati samaralari qaysi mezonlar bilan baholanadi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Ular faoliyatining ijobiy va salbiy jihatlarini qay tartibda nazorat qilinishi hali o'ylab ko'rilgani yo'q.

Aynan mazkur masalalarni o'z ichiga olgan ko'rgazmali seminarlar tashkil etish orqali targ'ibotchilarni qurollantirish juda muhimdir. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limlari mas'ul xodimlari ishtirokida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ish boshlagan ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilarning asosiy vazifalari, faoliyat yo'nalishlari ko'rgazmali tarzda tushuntirib berilsa, nur ustiga nur bo'lar edi.

Nilufar ISMOILOVA,
Zazorasp tumanidagi
24-maktabning o'qituvchisi

MULOHAZA

DILOZORLIK BIZGA YARASHMAS

Bag'rikeng, mehr-oqibatli, sabr-qanoatli, ko'p millatli xalqimiz azaldan bir tan-u bir jon bo'lib, ahil yashab, o'z baxt-saodati uchun halol mehnat qilib, hamjihatlikda yashab kelmoqda. Bunday fayzli hayot tarzining bardavom bo'lishi uchun, yoshlarimizni o'zaro hurmat-izzatga, mehr-oqibatga o'rgatish, eng muhimi, ularga bu borada namuna bo'lishimiz o'ta muhim. Chunki o'g'il-qizlarimizning go'zal muomala-munosabatlari ota-onalarni keksalik halovatiga muayassar qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarni kuzatib ekansiz, ayrim yoshlarimiz tomonidan o'zaro noshoiesta gap talashishlar, dilozor muomala, bir yoqlama ma'lumotlar asosida his-tuyg'ularga berilib, bir-birlarining dillarini og'ritishlarini ko'rasiz. Bu o'zaro ahil va mushfiq o'zbek xalqining go'zal va qadimiy ma'naviyati, madaniyati sha'niga yarashmas. Dunyoga Al Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Alisher Navoiy va boshqa yuzlab allomalarni bergan xalqimizni ranjitir.

Bu bezovtalikning bizga bog'liq bo'lmagan jihati ham bor. Bugun baxshariyat buzg'unchi g'oyalar shamollari tinmay esayotgan, "ommiy madaniyat"ning ta'siri

kundan kun kuchayib borayotgan sharoitda yashayapti. Undan qadriyat va an'analarimizning ma'naviy negizlariga bepisandlik "viruslari" tarqalmoqda. Bu ma'naviy pandemiy sharoitida o'zbek yoshlari o'zlarini o'zboshimchalik, axloqsizlik, xudbinlik, dilozorlikdan asray olishlari zarur.

Afsuski, ayrim yoshlarimizda boshqalarning kiygan kiyimi, taqqan taqqinchoqlari, qay ohangda so'zlashiga ko'r-ko'rona taqlid qilish holatlari ham kuzatilmoqda. Buni ko'rib, bir ziyoli insonimiz aytgandek: "Hoy yaxshilar, qayoqqa ketyapmiz? Milliy o'zligimiz qayerda qoldi? Nega bir qarasa undoq, bir qarasa bundoq



tuslanasiz? Hoy qizlarim, ko'zingizni oching, kim nimaning taqdim qilsa, unga ergashib ketmang. Axir biz ham boshqa xalqlar kabi ildizi mustahkam, o'z madaniyatiga ega xalqimiz. Bizga o'zga madaniyatning andazasi kerak emas, kerak bo'lsa, ular bizdan andazani olib ketsin", degingiz keladi.

Ha, jamiyatning bu jarayonlarga loqaydligi inson ma'naviyati uchun

o'ta muhim bo'lgan hurmat-izzat, mehr-oqibatga putur yetkazishi mumkin.

Shu kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda ayrim yoshlarimizning beo'xshov va tartibsiz, umuman, bilib-bilmay, taqlidan soqol qo'yishlariga bildirilgan munosabat trendga chiqdi. Turli fikrlar bildirildi. Ba'zilar og'ir-bosiqlik bilan mulohaza qilishdi. Ba'zilar esa his-tuyg'ularga berilib,

dilozor so'zlarni ham aytishdi. Ma'rifat tanqisligi sezildi. Mo'min-musulmon insonga xos bo'lgan tilidan va qo'lidandan birovgacha ozor yetkazmaslik sifati unutildi.

Dilozorlik o'zbek xalqining go'zal muomala madaniyatiga mos keladimi? Albatta, yo'q. Dilozorlik oqibatida ayrim yoshlarimizning oilasidan ham voz kechayotgani, ota-onasini behurmat qilayotgani, hamiyat va g'urur kabi hissiyotlardan mosuvo bo'lib qolayotganida ko'zga tashlanmoqda. Shu sababli, ayrim yoshlarimizning turk aktyorlariga ko'r-ko'rona taqlid qilib soqol qo'yishlari noto'g'ri ekanligi, otani hurmat qilish, ota uyda o'tirganida tomga chiqib qor kuramaslik haqidagi fikrlarga keskin munosabatlar bildirilmoqda.

Bugun yurtimizda yoshlarimizni ma'naviy tarbiyalash, kitobxonlikka targ'ib qilish, ularni zakiy yoshlar etib tarbiyalash maqsadida ta'lim sohasida jadal islohot-

lar olib borilmoqda. Millatimizni ma'rifatparvar qilish uchun qaratilgan bu xayrli ishlar, albatta, o'z samarasini beradi. Zero, kitob va ilmga mashg'ul yigit-qiz hiech qachon birovgacha ko'r-ko'rona taqlid qilmaydi. O'z aqli bilan yashashga qodir bo'ladi. O'zligini yo'qotmaydi. Zamonaviy texnologiyalarni, yuksak malakalarni egallaydi. O'zini, ota-onasini, oilasini, xalqini, Vatani baxtiyor qiladi.

Buning uchun barchamiz birdamlik, ahillik bilan yoshlarning fikri, ongi va milliy o'zligini saqlab qolishiga ko'mak berishimiz zarur. Dilozorlikni o'ramizdan haydab, o'zaro hurmat-izzat va mehr-oqibatni real hayotda ham, virtual hayotda ham namoyon qilishimiz maqsadga muvofiqdir.

Muhammadjon QURONOV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbarining birinchi o'rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor

ПРОФЕССИЯ-СУДЬБА

ТАМ, ЗА ОБЛАКАМИ

Учащаяся гимназии №1 города Карши поначалу выбрала для себя престижную профессию юриста. Тогда большинство абитуриентов проявляли интерес к праву, экономике, программированию. И девушка с победным именем чуть было не оказалась в общем «модном» потоке.

Сейчас бортпроводница Виктория Ахмедова признается: «Счастлива, что не пошла тем путем. Благодарна маминной подруге, посоветовавшей выбрать «небесную» профессию. «Девочка моя, только там ты найдешь себя!» – эти слова сыграли решающую роль, и я рискнула попробовать».

Вопреки победной установке, данной при рождении, первый отбор, растерявшись, провалила и вынесла поспешный вердикт: «Наверное, это не мое». По настоянию мамы сделала вторую попытку, которая увенчалась успехом. Без особого желания пришла, спокойная, уравновешенная, что в результате привело к абсолютной собранности.

Вспоминает серьезное обучение: «Готовили нас, как космонавтов. Занималась не поднимая головы, потому что не могла подвести наставников – мастеров своего дела, которые максимально эффективно

старались донести до нас необходимую информацию. В результате зубок знали оборудование, документацию, процедуры, обслуживание. На месте оставалось лишь усвоить детали». Кстати, о необходимом атрибуте бортпроводницы – лучезарной улыбке – наша героиня высказывается так: «С восточным воспитанием и радушием это легко. Не приходится себя заставлять улыбаться. Получается само. И естественно».

Стартовый рейс называет удивительным, потому что стажировал ее профессионал высочайшей квалификации, с легкостью посвятивший новичка в тонкости специальности. Впечатления не испортил даже добрый розыгрыш: «зеленую» бортпроводницу попросили проверить состояние шасси, однако наставница успела перехватить Викторию, когда та собралась спускаться по трапу. Именно тогда и зародилось желание летать, которое 16 лет лишь усиливало непреодолимая красота неба.

Нравилась дальние направления в разные города. Только став матерью, полюбила быстрые рейсы. К слову, каждый из них Виктория считает особенным. Ведь это новые встречи, общение (насколько позволяет время) с интересными людьми. Приходилось летать с учеными, политиками, звездами эстрады и кино, спортсменами, поварами... И всегда свежая информация, расширяющая кругозор. А когда пассажиры попадают в ее смены во второй, а то и в третий раз, то проявляют почти родственные (небо быстро роднит!) чувства.

Случилось как-то лететь в Мекку с группой паломников. Все в белом, запомнить лица трудно. Через некоторое время рейс из священного города в Ташкент. Женщины, словно сговорившись, обнимают, целуют Викторию, вручают ароматическое масло, воду из источника Зам-Зам, мужчины задают традиционные вопросы. С искренней теплотой. На вопрос, чем вызвано такое отношение, дружно отвечают: «Вы же нас в Мекку доставили. И обратно с вами летим».

Не бывает в небе и без курьезов. Внешность Виктории (отец – узбек, мать – русская) легко позволяет причислить ее к представителям разных национальностей. Два армянина упорно обращаются к ней по-армянски, а затем достают сумку с национальными яствами: «Очень ты худая, доченька! Ешь, поправляйся».

Виктория Ахмедова – победитель международного конкурса бортпроводниц в Москве. Отмечает до-



брую атмосферу состязания «небесных девушек» (так раньше называли стюардесс), когда и соперничества-то не ощущается. Наша соотечественница достойно защитила визитку на английском и русском языках, ответила на профессиональные вопросы, продемонстрировала вечернее платье, отгадала личность по описанию и удивила жюри в творческом конкурсе. Вместо очаровательной девушки на сцене появился... Франсиско Доминго Карлос Андрес Себастьян Д'Анкония из романа «Атлант расправил плечи». А Виктория блаженствовала в брючном костюме и туфлях без каблучков, что для представителей ее профессии – довольно редкое явление.

На вопрос: «Как удалось стать первой среди 13 участниц?» — улыбается: «Нас учили не теряться ни при каких обстоятельствах. Сначала холодный расчет, а уж потом эмоции».

На земле стюардесса по имени Вика воспитывает детей, изучает испанский язык, любит читать и занимается спортом. Всегда собрана и целеустремлена, старается все держать под контролем. Так же, как и в небе. Есть у нее, как и у всех, чья профессия связана с авиацией, табу: в лексиконе отсутствует слово «последний». А главной традицией она называет выполнение своих обязанностей в прекрасном расположении духа.

Ольга АЛЕКСАНДРОВА



В ТЕКСТУ»
К кандидатам на должность бортпроводника (обязательно граждане Республики Узбекистан в возрасте от 18 до 25 лет) предъявляется много требований: это образование не ниже среднего; разносторонние знания в области географии, культуры, политического устройства Узбекистана, международной обстановки; грамотная речь и сообразительность (приветствуются навыки в области медицины и сервиса); владение государственным и русским языками, английским на разговорном уровне; умение плавать. Имеют значение рост, комплекция, естественная внешность, осанка, дикция, словарный запас, тембр голоса, опрятность, подтянутость, походка, жесты и мимика, проявление эмоций в соответствии с ситуацией.

В общении бортпроводник должен быть доброжелательным, сдержанным, обаятельным, предусмотрительным, тактичным; способствовать созданию теплой и доброй атмосферы, не давая повода для конфликтов, а при возникновении такового – уметь погасить его; обладать хорошими манерами; иметь высокий культурный уровень, соблюдать правила этикета.

Уверенность в себе, сообразительность, энергичность, эмоциональная и психологическая устойчивость, доброжелательность и коммуникабельность, быстрая реакция и готовность к работе в стрессовых, нестандартных ситуациях и в условиях дефицита времени – необходимые качества бортпроводника.

ОТКРЫТЫЕ ДВЕРИ В ПРОШЛОЕ

Есть у фотографии магическое свойство – некая власть над временем, когда остановленное мгновение позволяет вернуться назад, вспомнить, осмыслить... Кадры хранят не только лица и предметы, в них оживают чувства.

«Хорошая фотография – это та, которая сообщает о факте, касается сердца, – писал Ирвинг Пенн, один из самых известных фотографов XX века, – и оставляет зрителя изменившимся человеком после того, что он увидел».

ЖИЗНЬ В ОБЪЕКТИВЕ

Счастливые дети в брызгах фонтана, колоритное одинокое облако, плывущее из-за горы, горлица, восседающая на рейке с целлофаном (рынок в период пандемии), густая нишалда, сломанное дерево, воздушный змей, закрывший спину своего хозяина... То, мимо чего обычный человек пройдет, возможно даже не удостоив внимания. То, что волшебник с камерой заметит и сделает достоянием многих. Пожалуй, нет высшей похвалы для специалиста, чем услышать незатейливую фразу: «Снимки живые!»

Таковыми живыми снимками радуется ценителей «остановленных мгновений» молодой фотограф **Мадина НУРМАН**, за высокий профессионализм удостоенная премии «Тахсин» и медали «Шухрат». Сегодня она – наш гость.

– Почему выбрали фотографию? Наверняка, учась на факультете журналистики Узбекского государственного университета мировых языков, мечтали, какие материалы будете писать, какие проблемы поднимать.

– Все произошло случайно. Была администратором официальной страницы университета в Facebook, где мы, будущие журналисты, освещали происходящие в нашем вузе события. Однажды заболел фотограф. Вместо него на конкурс японского языка отправила меня. Именно в тот день поняла, что фотография – это мое.



– Вы выработали свой профессиональный почерк. Глядя на ваши работы, вспоминаешь слова Анри Картье-Бессона: «Это иллюзия, что фотографии сделаны с помощью камеры... Они сделаны глазом, сердцем и головой». Какие сюжеты привлекают для названной триады?

– Люблю случайные кадры. Иногда просто выхожу на улицу и снимаю все, что мне интересно. Street photo – бесконечный источник вдохновения. Любопытно наблюдать за животными. Особый дорогой объект – дети. И в архитектуре – «застывшей музыке» – можно открывать новое. Нравится работать на политических мероприятиях государственного уровня. Неограниченные возможности для создания портрета! Причем не парадно-официального. Некоторые фотокорреспонденты считают совещания, форумы подобного рода скучными. Однако по мне это вовсе не так. Достаточно обратиться к опыту фотографов мирового уровня, чтобы понять: и здесь получаются нестандартные снимки, отражающие внутренний мир личности, показывающие то, чего не заметишь в выступлениях или поступках политика.

– Оказываясь на мероприятиях в компании фотографов-мужчин, не замечаете снисходительного отношения к себе: лучше бы статьи писала, а не за камеру бралась?

– Раньше так и было. Коллеги думали, я одна из тех девушек, кого отправили из-за отсутствия штатного специалиста в редакции. Иногда не уступали точку съемки вообще. Тогда поняла: надо усердно работать, проявлять себя. Однако сейчас склоняюсь к мысли, что неизвестность – важное преимущество, а не недостаток. Когда вас не знают, не замечают, невидимкой можно снимать самые естественные кадры. Когда и коллеги, и потенциальные герои имеют представление о вашем стиле внезапных ракурсов, картина иная. Первые наблюдают за передвижением по залу, вторые начинают позировать, что сильно мешает в процессе работы. Люблю, когда герои не видят камеры. Только в этом случае можно добиться нужной реалистичности.




– Фотография нравится вам с детства?

– В какой-то степени да. В 12 лет мама купила мне настоящий пленочный фотоаппарат «Кодак». Я была безумно рада, снимая все подряд. Потом, к сожалению, его украли в школе. Сильно не переживала. С возрастом осознала: утраты и потери приходят в нашу жизнь не случайно – она в нужный момент подарит нечто большее.

– Как поступаете с теми снимками, которые кажутся неудачными? Удаляете сразу или проводите глубокий анализ, почему так могло получиться?

– Хорошенько вглядываюсь в кадры. Если совсем неудачные, удаляю. А некоторые оставляю, возвращаясь к ним спустя время. Внимательно рассматриваю и только после этого принимаю окончательное решение. Опыт складывается



му мнению, фотожурналисту Узбекистана. Из зарубежных мастеров это Пит Соуза – фотограф 44-го президента США Барака Обамы. На чтение специальной литературы трудно выделить время. Предпочитаю видеуроки в YouTube.

– Вы молодой фотокорреспондент, которого знает практически вся страна. Отмечены государственными наградами, имя ваше на слуху. В День работников печати и средств массовой информации получили персональное поздравление от хокима города Ташкента. Что для вас означает такое признание?

– Смотрю на него как на мотивацию, укрепление внутреннего стержня. Признание окрыляет, но нельзя оставаться надолго в его ореоле. Поэтому стараюсь забыть о прошлых успехах и двигаться дальше, жить настоящим в творческом поиске. Я еще молодая, вся жизнь впереди. Значит, надо достигать новых вершин. Самая большая награда – доверие родных, близких, друзей, их поддержка.

– Пожалуй, нет такого представителя творческой сферы, который бы не прокручивал вдохновившие



его события, образы. Они надолго остаются в памяти. Могли бы назвать самую запоминающуюся съемку?

– Могу даже назвать дату этой съемки: 28 марта 2019 года. Я впервые в парламенте с фотокамерой и испытываю особый душевный подъем. Атмосфера непривычная, и хочется сделать такие же снимки, живые, отражающие работу мысли, богатый внутренний мир личности, решающих важнейшие государственные вопросы. Вспоминаю в лица, мимику, жесты, наблюдаю на общую энергетическую волну...

Сделала ряд нестандартных кадров. Как тут не вспомнить, что «человек, которого вы фотографируете, составляет 50 процентов портрета, а остальные 50 – это вы»?! Настрой ли помог, или это был мой день, работой осталась довольна.

Не могу выразить словами, почему запомнился именно этот рабочий день. Особенный – и все тут. Может, он настолько крепко засел в памяти, что именно в 2019-м я получила награды от Сената и Агентства по делам молодежи. Высокая оценка подтвердила, что я что-то умею. Это стало началом



– Ваш репортаж из клиники в Зангиате вызвал немало откликов. Ведь даже получить разрешение на подготовку подобного материала непросто. Тем более что работа сопряжена с опасностью для здоровья.

– Через месяц получили ответ на запрос в Министерство здравоохранения. Отправился втроем: корреспондент, фотограф, заместитель главного редактора. Изначально поставили цель – показать труд медицинских работников в период пандемии. Вначале директор 2-й Зангиатинской специализированной больницы дал информацию о своем учреждении: графике персонала, поступивших больных, выздоровевших, летальных исходах... Затем познакомил с врачами, историей которых мы должны были представить на нашем сайте.

Брали интервью у самоотверженных представителей благородной профессии, знакомились с задачами каждого отделения. Во время посещения «красной» зоны на нас надели средства индивидуальной защиты, которые в народе называют «скафандрами».

Страшно не было. Мы год писали о коронавирусе, упоминали читателям о путях передачи инфекции и мерах предосторожности, недопустимости самолечения, призывали инфицированных соблюдать условия самоизо-



ляции. Все возможные эмоции переживало сочувствие к больным. В реанимационном отделении едва удержалась от слез. Тяжело смотреть, как человек, еле дыша, борется с болезнью.

Затронул детский рисунок, приколотый к стене. Пациент лежал без сознания и не имел представления о том, что происходит вокруг. А большая семья, изображенная на кар-



тинке, возвращала его к жизни: «Мы тебя любим и ждем!» Долго не могла прийти в себя. Рисунок снился мне несколько дней. Сердце пронизывала боль. Ведь этот мужчина в любую минуту мог проиграть свою битву и перестать дышать. По сути, единственным самым действенным лекарством вы-

ступали надежда и постоянная молитва близким.

Однако, как профессионал, я не имела прав поддаваться чувствам в ущерб делу. Как бы тяжело ни было, нужно брать себя в руки при любых эмоциональных потрясениях. Работа у нас такая. Проинформировать, донести, пробудить сознание, заставить сопереживать. Зангиатинским репортажем и своими снимками удовлетворена. Объективная картина отражена.

– Зангиатинский репортаж подписан вами и как корреспондентом. Помимо «говорящих иллюстраций», вы брали интервью у врачей. После фотоаппарата не тяжело обращаться к тексту?

– Всегда нет. Люблю писать, поэтому открыла свой Telegram-канал. Там депю не только фотографиями, но и статьями, постами, просто мыслями. Конечно, писать новость и статью куда сложнее, чем обычный пост, но стараюсь делать это профессионально. А оценивают читатели и главный редактор нашего сайта.

– Ваше интернет-издание называется Daryo.uz. Удастся ли отразить смысл названия в материалах?

– «Дарё» в переводе с узбекского «река». Название метафоричное: имеется в виду поток новостей. Стараемся держать читателя в курсе событий, делая подачу информации более динамичной и интересной. Радует, что мои фотографии органично вливаются в «течение реки».

– Когда фотографируете вас, хочется вмешаться в процесс и подсказать, как именно это надо делать?

– Открою секрет: не люблю фотографироваться. Звучит странно, но это действительно так. Поэтому в сам процесс не вмешиваюсь, даю свободу фотографу. Результат проверяю. Высказываю свое мнение, можно ставить это фото или нет.



– Дилетанты не считают фотографию сложным искусством, утверждая, что все делает аппаратура, а человеку остается только кнопки нажимать. Что посоветуете начинающим фотографам, чтобы они не оказались создателями цифрового «вала»?

– Избегайте шаблонных ракурсов, постановочных сюжетов, похожих друг на друга как две капли воды. Старайтесь выработать свой стиль (пусть даже методом проб и ошибок) свой стиль, свой почерк.

Не делитесь с публикой большим количеством фотографий. Хотите показать – отбирайте лучшие. Так повысите качество вашего портфолио фотографа. В результате у зрителей создастся более благоприятное впечатление от вашего творчества и вы будете оценивать себя строже.

Если случайно во время фотосессии открыли что-то новое для себя, не бойтесь поделиться с другими. Так не только сможете помочь кому-то, но и укрепите понимание того, что узнали.

Относитесь к людям с уважением. Будьте вежливы! Раньше была популярна фраза: «Фотографии говорят сами за себя». Если не умеете себя вести, они мало что скажут в вашу пользу.

– Известный английский литератор Уильям Теккерей писал: «Две наиболее привлекательные особенности фотографии состоят в том, чтобы сделать новые вещи знакомыми и знакомые вещи новыми». Желаем вам непреходящей новизны в работах и наивысшего мастерства в отражении действительности!

– Спасибо! И вашему изданию творческих успехов!

Беседовала
Людмила ПОЛОНСКАЯ

К ЮБИЛЕЮ ПОЭТА

ПАРНАССКИЙ МОТЫЛЕК

С этим французским поэтом, которому в июле исполнилось бы 400 лет, даже далекие от художественной литературы люди знакомы по школьной программе. Парадокс: имя известно единицам, а строки у каждого на слуху.



Ну кто же не знает знаменитую историю Ворона, поддавшейся на лживые речи Лисы и потерявшей заветный кусочек сыру? Или Лисицу, несправедливо раскритиковавшую Виноград? Или Стрекозу-попрыгуню, ставшую героиней ряда смешных переделок? Волка, обвинявшего Ягненка в грехах его родичей?

Вижу возмущенные лица читателей, слышу справедливое негодование: «Это

же басни Крылова! При чем здесь французский автор?» Интересно, стал бы Крылов известным баснописцем, не попадись ему «Басни Эзопа», переведенные Лафонтеном в стихах? Естественно, с подробностями и развитием действия переводчика. Потом появились и оригинальные произведения. Кстати, в сборнике русского баснописца из 197 поучительных произведений с сюжетами Лафонтена связаны 33.

Такая вот эстафета: фригийский раб — беспечный француз, живущий под чужими крышами, — флегматичный приятель Пушкина.

Сейчас разве что филологи помнят, что Жан Лафонтен создал произведения разных жанров: поэмы «Адонис», «Сон в Во», «Хина», «Филемон и Бавкида», драматическую эклогу «Климена», повесть «Любовь Психеи и Купидона». Он писал мадригалы, баллады, послания, оды характерным прециозным (изысканным, уточненным) стилем. А успех снижал



озорными «Сказками и рассказами в стихах» и знаменитыми «Баснями» (12 книг).

Басни принесли Лафонтену славу одного из величайших народных поэтов Франции. Это было большой смелостью — в эпоху классицизма отказаться от галантности в оформлении мысли и «опуститься» до низшего (с точки зрения эстетики направления) литературного жанра. Небольшие, но емкие произведения зарождались на базе традиций древних баснописцев Эзопа и Федра, индийской «Панталантры», животного эпоса и отражали проблемы общества. Наблюдательный автор не боялся сделать героем выразительных зарисовок самого короля Людовика XIV.

Беззаботный (недаром его прозвали «парнасским мотыльком»), вольнолюбивый



поэт мог проявить твердость, когда дело касалось преданности друзьям. Обратился с «Одой королю...» в защиту заточенного в тюрьму временщика Фуке, вызвав немилость правителя. Был выслан из Парижа, а издание его сказок запрещено.

О баснях Лафонтена пишут, что в них проходит вся Франция второй половины XVII века. Можно сказать, он стал реформатором жанра, обогатив язык, введя выразительные диалоги, расширив возможности вольного стиха.

Свое восприятие Лафонтена выразил Пушкин в стихотворении «Городок», говоря о любимых книгах:

*И ты, певец любезный,
Поэзией прелестной
Сердца привлечший
в плен,
Ты здесь, лентяй
беспечный,
Мудрец
простосердечный
Ванюша Лафонтен!*

Подготовила
Ольга ВОЛОДИНА

афишка.

UZ

Мосты дружбы

Что: День дружбы народов
Где: все регионы республики
Когда: 30 июля



Международным днем дружбы. В резолюции по данному поводу говорится, что «дружба между народами, странами, культурами и отдельными лицами может вдохновить на усилия по обеспечению мира и дает возможность навести мосты между обществами, которые чтят культурное многообразие».

Новый праздник утвержден Законом «Об установлении Дня дружбы народов». 30 июля выбрано не случайно: ООН в 2011 году провозгласила эту дату

Согласно статистическим данным, сегодня в стране проживает более 130 национальностей и народностей, а также представители 16 религиозных



конфессий, действуют 141 национально-культурный центр и 36 обществ дружбы. На основании указа Президента в Республике Каракалпакстан, областных центрах и городе Ташкенте созданы «Дома дружбы».

проекта Pop-art становится урбанизация и то, как она повлияла на развитие искусства в Узбекистане» — так организаторы объясняют идею выставки.

Молодые художники демонстрируют свое отношение к процессу Urban, а также затрагивают социально значимые вопросы. Застройка Ташкента, потеря идентичности, духовной связи с природой — эти и другие темы отражены в постерах, инсталляциях, граффити. Их можно увидеть не только в галерее Volunt Factum, но и в городском метрополитене, парках, автобусах.

Проект организован при генеральной поддержке Швейцарского бюро по сотрудничеству в Ташкенте.

Киновстречи

Что: проект Tashkent Film Encounters
Где: Центр современного искусства
Когда: июль-сентябрь

Tashkent Film Encounters (TFE) — ежегодная публичная программа, включающая серию показов, лекций и круглых столов. Первый выпуск прошел в 2019-м, и с тех пор не прекращалась работа по подготовке программы нынешнего года.

В 2021-м проект посвящен женщинам в центральноазиатском кино. Кроме стран нашего региона, представлены киноленты из Азербайджана, Армении, Грузии, Калмыкии. В TFE принимают участие международные кинокритики и кураторы. Запла-



нирована серия мастер-классов для молодых режиссеров Узбекистана.


Зрители смогут увидеть такие фильмы, как «Триптич» Али Хамраева, «40 дней тишины» Саодат Исмаиловой, «Кругом снег» Камары Камаловой и другие.

История в снимках

Что: фотовыставка «Семен Безсонов — фотокорреспондент эпохи Узбекистана»
Где: столичная галерея Human House
Когда: до 1 августа


На выставке представлены различные работы фотокорреспондента: снимки президента США Никсона, история двадцатилетнего послевоенного становления Узбекистана и многое другое.

Работы Семена Безсонова очень тонко и ярко передают дух времени, настроение людей, огромный энтузиазм и особый восточный колорит, наполненный традиционным гостеприимством, сердечностью и простотой.



Урбанизация: взгляд художника

Что: выставка Pop-art. Urban
Где: столичная галерея Volunt Factum
Когда: весь июль



«Город Ташкент как живой организм имеет свой ритм, жизненные циклы, время активности и покоя. У него есть дыхание, энергетика, самосознание, идентичность, облик, нравы... Темой

O'TA YENGIL JAZO HAM ADOLATSIZLIK DEMAKDIR

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Ochig'i, oddiy odamlar davlat va jamiyat mulkini o'zlashtirish va poraxo'rlik jinoyatlari ko'p sodir etilayotganligini rasmiy statistik ma'lumotlarga qarab emas, ayrim, hamma qatori o'rtacha ish haqi oladigan rahbarlarning hayotidagi keskin o'zgarishlarga qarab baholaydi. Agar ikki million dollarlik uy yoki dala hovli sotib olgan tadbirkor bo'lsa, u bilan hech kimning ishi ham, gapi ham yo'q. Ammo o'sha ikki million dollarlik uyni davlat xizmatchisi sotib olsa-chi? Bu o'rinda "nega hamma davlat xizmatchilari u qatori boy emas?" degan savol paydo bo'lishi tabiiy, albatta.

Aslida, birovning cho'ntagidagi pulini hisoblash, boyligiga ko'z olaytirish odobdan emas. To'g'ri, bu — hasad. Agar bir kishi qo'shnisiga: "Nega menda bir qavatli uy, sizda esa uch qavatli, buncha pulni qayerdan topayapsiz, qo'shni?" — deb qolsa bormi, qo'shni ham jahli bilan: "Xudoning bergani-da. Hasad qilmang, og'ayni", deb qo'shnisiga o'shqiradi. Vaholanki, "hasad bilan emas, havas bilan yashash kerak", qachonki ortirilgan boylik haloldan kelgan bo'lsa.

Prezident farmonida bu masalalarga oydinlik kiritildi. 2022-yil 1-yanvardan boshlab, davlat xizmatchilari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlar, davlat korxonalar va muassasalari rahbarlari va o'rinbosarlari, ularning turmush o'rtog'i-yu farzandlarining daromadlari va mol-mulkini majburiy deklaratsiya qilish tizimi joriy etiladigan hamda kimda kim bu tartibni buzadigan bo'lsa, davlat xizmatidan chetlashtirilib, qonunda belgilangan

tartibda javobgarlikka tortiladigan bo'ldi.

Qolaversa, 2022-yil 1-yanvardan boshlab davlat xizmatchilariga respublika hududidan tashqarida hisobraqamlar ochish va egalik qilish, naqd pul mablag'larini saqlash, ko'chmas va boshqa mol-mulkka ega bo'lish kabilarning taqiqlab qo'yilishi ham jamoatchilikning ko'nglidagi gapning ro'yobga chiqishidir. Prezident tomonidan o'rnatilgan bu tartib "falonchi mansabdorning Shveysariya bankida qancha puli bor ekan", kabi taxmin va shubhalarga o'rin qoldirmaydi.

Ushbu farmon bilan korruptsiyaning oldini olish uchun keng jamoatchilikning fikri va takliflari e'tiborga olingan holda yana bir muhim amaliyot kiritilmoqda. Endi korruptsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reestri, ya'ni, hamma tanishish imkoniga ega bo'lgan ro'yxati yuritiladi. Bundan buyon korruptsiyaning basharasini xalq ko'radi. Ulardan o'zini tortadi. Halol luqmasi yoki boshqa manfaatlarini ulardan ehtiyot qiladi. Bu hali hammasi emas. Ro'yxatga kiritilgan korruptsiyaning boshqalarga nisbatan yana bir qator imkoniyatlari ham cheklanadi.

Masalan, korruptsiya sifatida ro'yxatga kirganlar davlat xizmatiga ishga qabul qilinmaydi. Davlat muhofotlari bilan taqdirlanmaydi. Saylanadigan yoki alohida tayinlanadigan lavozimlarga nomzodi ko'rsatilmaydi. Davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari hamda idoralarda kollegial organlarning a'zoligiga ham qabul qilinmaydi. Davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlar hamda davlat

ta'lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmaydi. Yana, ular tomonidan ta'xis etilgan va (yoki) ular ishtirokchisi hisoblangan tadbirkorlik subyektlari davlat xaridlari va davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda ishtirokchi (jirochi) sifatida qatnashish, shuningdek, davlat aktivlarini xususiylash-tirish bilan bog'liq tender va tanlov savdolarida ishtirok eta olmaydi.

Mana, ro'yxatning ahamiyati qanchalik katta. Muhimi, inson huquqlari bo'yicha umumiy t'irof etilgan xalqaro talablarga zid bo'lmagan bu cheklovlar, avvalo, ogohlantiruvchi xususiyatga ega. Ha, mazkur farmon chiqqan kundan boshlab har birimiz uchun ogohlilik qo'ng'irog'i bo'ldi. Farmondan o'ziga tegishli xulosani chiqarib olmagani odam nafaqat jinoyat javobgarlikka tortiladi, yuqorida sanab o'tilgan cheklovlarga ham mahkum bo'ladi.

Farmonda davlat organlariga xalqning xohish-irodasi aks etgan yana bir muhim topshiriq berilgan va bu topshiriq ham shu turdagi jinoyatlarning oldini olishda alohida ahamiyatga molik.

Birinchi, Jinoyat kodeksida korruptsiyaga oid jinoyatlar toifasiga kiruvchi moddalarning aniq ro'yxatini belgilab qo'yish.

Ikkinchi, korruptsiyaga oid jinoyatlar uchun belgilangan jazo choralarini uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo chorasiga-chi keskin kuchaytirish.

Uchinchi, daromadlar va mol-mulkni deklaratsiyalash jarayonida aniqlangan noqonuniy boylik orttirganlik uchun javobgarlik o'rnatish.

To'rtinchi, korruptsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslar

ga nisbatan jinoyat jazosi o'tashda yengillashtiruvchi normalar qo'llanilishiga cheklovlar belgilash kabilari nazarda tutilgan.

Darhaqiqat, aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarda juda ko'plab fuqarolarimiz korruptsiya jinoyatlarining o'sish sabablaridan biri sifatida jazolarning yengilligini bildirishgan. Nega o'zlashtirish jinoyati ko'p, degan savolga ham yurtdoshlarimiz "jazo yengil" deb javob qaytarishgan. Bu bejiz emas. To'g'risi, mustaqillikning dastlabki yillarida jazolarning liberallashtirishi (jazolarning keskin kamaytirilishi, mol-mulkni musodara qilish qo'shimcha jazosining olib tashlanishi va boshqalar) jinoyatlarning oshishiga, ayniqsa, juda ko'p miqdordagi o'zlashtirishlarga zamin yaratganligi ko'pchilikka ma'lum.

Masalan, korruptsiya jinoyat hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167-moddasida o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish uchun uch qismda jazo belgilangan bo'lib, eng og'iri, uchinchi qism hisoblanadi. Ya'ni, eng og'iri hisoblangan uchinchi qismga ko'ra o'sha harakatlari: juda ko'p miqdorda; o'ta xavfli retsidivist tomonidan; uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab; kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda (buguni kun hisobida 147 million so'm) jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Mana, nima uchun milliard-milliard pullar

o'zlashtirilmoqda. Bu ham kamdek, yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

Shu sababli, Prezidentimizning qonunchilikda jazo amaliyotini qayta ko'rib chiqish haqidagi topshiriq xalqimizning ko'nglidagi gap bo'ldi. Darhaqiqat, ayni vaqtda korruptsiya jinoyatlaridagi "juda ko'p miqdor" uchun jazo choralarini uzoq muddatli qamoq jazolariga almashtirish va ularning huquqlarini cheklash vaqti keldi. Lozim topilib, "yetkazilgan zararni aybdorlardan o'n baravar miqdorida undirib olish" haqidagi normalar ham qonunchilikka kiritilsa, ushbu farmon talablariga a'loq mos kelgan holda, jinoyatchilikning keskin kamayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, har qanday jazo jinoyatchining qilmishiga yarasha bo'lmog'i lozim, undan og'iri adolatsizlik bo'lgani kabi, jazoning yengili ham shu qadar adolatsizlikdir.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining maqsad-vazifalaridan biri ham korruptsiyaga qarshi murosasiz bo'lishdir. Biz korruptsiya va uni keltirib chiqaruvchi sharoitlar jamiyat uchun qanchalik og'ir oqibatlar vujudga keltirishini chuqur anglagan holda, u bilan keskin kurashish uchun butun xalqimizning yordamiga tayanib maydonga chiqdik. Bu yo'lda davlat rahbarining farmon va qarorlari barchamizga dasturlamal bo'lib xizmat qiladi.

Abdulkamol RAHMONOV,
O'zbekiston "Adolat" SDP
siyosiy kengashi raisining
o'rinbosari.
O'zA



Aziz yurtdoshlar, xayr-sahovat, mehr-oqibat, insonparvarlik singari azaliy an'ana va qadriyatlarimizni o'zida mujassam etgan muborak Qurbon hayiti barchangizga qutlug' bo'lsin! Yaratgan el-u xalqimizga sihat-salomatlik, oilaviy xotirjamlik, xonadonlarimizga qut-baraka ato etsin!

**O'ZBEKISTON
MUSULMONLARI IDORASI**

Musiqa shunday bir sehrlı kuchki, u har bir tinglovchining qalbini larzaga keltirib, borliqni befarqlikdan qutqara oladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: "Attestat olishda, hammamiz o'rganganimiz - fizika, matematika bo'yicha baho bo'ladi. Topshiriq berdimki, endi attestatda har bir maktabda 11-sinfni bitirgan bolalarimiz bitta cholg'u asbobini o'rgangan degan bahosi bo'ladi. Bu nima uchun kerak? Iqtisodiyotni tiklaymiz, lekin shuning barobarida madaniyatimizni ham tiklab bormasak, ertaga ma'naviy ozuqa bo'lmagan elda, xalqda, yoshda yutuq bo'lmaydi".

SAN'AT TA'LIMIDA XALQARO TAJRIBA

Ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarda yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Davlat maktablari bilan birga shaxsiy maktablar, kollej-

lishga erishadi. Yuqori sinfga ko'chgan sari estetik tarbiya ham murakkablashib boradi. Rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq san'ati taqlidchilari yetishadi. O'qituvchi-kadrlar tayyorlash ishi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ular oliy pedagogi-



Musiqa ruhning axloqiy tomoniga ma'lum darajada ta'sir qilishi mumkin va musiqa bunday xususiyatlarga ega bo'lgani uchun, shubhasiz, u yoshlar ta'limi fanlari qatoriga kiritilishi kerak.

Arastu

Bunday musiqiy ta'lim bizga kerakmi?

lar va oliy ta'lim dargohlari mavjud. O'qituvchi o'zining maktab sharoiti, imkoniyatlari va o'quvchilarning bilim darajasiga qarab dasturga o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar san'at orqali hayotni o'rganish va unga shaxsiy munosabat bildirish, ijodiy munosabatda bo'lish malakalarini rivojlantiradi. Musiqa darslarida yangi texnik vositalaridan keng foydalaniladi. Tarixga nazar solsak, Ikkinchi jahon urushidan so'ng ayrim davlatlar singari Yaponiya ham tang ahvolga tushadi va Yapon hukumati shu ahvoldan chiqishda, albatta, ta'lim sohasiga katta e'tibor beradi va bor kuch-mablag'larini ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratadi. Maktablarda asosan uchta fanga urg'u beriladi. Bular: yapon tili, matematika va musiqa. Keyinchalik ularda bolalar bog'chasidan oliy ta'limgacha estetik tarbiya amalga oshiriladi. Estetik tarbiya integratsiya qilingan fan bo'lib, unda musiqa, tasviriy san'at va mehnat uzviy bog'langan. Yapon musiqi ta'limida "Suzduki" tizimi mashhurdir. Unda musiqa tinglab idrok etish maqsadi ilgari surilgan. Bundan tashqari, bolalar cholg'u asboblari kuy chalishtirish muhim rol o'ynaydi. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarning onasi ham ishtirok etadi. Mashg'ulot mazmuni va maqsadidan ogoh bo'ladi hamda oilada o'z ovozi bilan shug'ullanadi. "Suzduki" metodida onalar musiqa ma'lumotiga ega bo'lishi shart emas. Natijada 5-6 yoshli bolalar Betxoven sonatalarini cha-

ka va san'at bilim yurtlarida tayyorlanadi.

Vengriyada musiqiy tarbiya sohasida erishilgan asosiy yutuqlar zamonaviy venger musiqasining asoschilaridan biri, kompozitor, xalq og'zaki ijodi bilimdoni, musiqashunos, pedagog Zoltan Koday (1883-1967) nomi bilan bog'liqdir. Zoltan Kodayning "2000-yilga kelib har bir umumta'lim maktabini bitirgan o'smir notani erkin o'qiy oladi", degan orzusi amalga oshdi.

Bu mamlakatda musiqiy tarbiya yuqori darajadadir. Umumta'lim tizimi sakkiz yillik to'liqsiz o'rta maktab bo'lib, uni bitirgan o'quvchilar to'rt yillik gimnaziyaga o'tadilar. 1-sinfda bolalar haftada ikki marta 0,5 soatdan, 2-7-sinflarda haftada ikki soat "Musiqa" o'quv fani bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, har hafta ikki soat orkestr mashg'ulotlariga ajratiladi. 3-4-sinflarda o'quvchilar musiqa adabiyoti bilan tanishish va birorta cholg'uni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Maktablarda fortepiano, skripka, puflama musiqa cholg'ulari sinflari mavjud. Bunday sinflarda o'quvchilar soni 26 nafardan ortmaydi. Ularda barcha o'quv fanlaridan bilim berayotgan o'qituvchi musiqa darsini ham o'tadi. 5-8-sinflarda bu darslarni musiqa mutaxassisi olib boradi.

Jahonning ko'pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatga ega bo'lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Yunesko qoshidagi xalq-

ro musiqiy tarbiya jamiyati (ISME) o'z faoliyatini rivojlantirmoqda. Bu jamiyat o'z oldiga dolzarb va ezgu maqsadlarni qo'yib, butun jahonda bolalar va o'smirlarni musiqiy tarbiyalash, bu jarayonni yosh avlodni axloqiy, intellektual va estetik jihatdan shakllantirishda qudratli vosita sifatida o'rganadi.

AXLOQIY-ESTETIKA TARBIYACHISI

O'zbekiston umumta'lim maktablarida musiqa darslari o'quv ta'lim fanlari qatorida va maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassis pedagoglar tomonidan olib borilishi qononardir. Musiqa darslari, musiqaga oid to'garaklar o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga hamda ularning qobiliyatini, qiziqishini yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Musiqa darslari DTS asosida tasdiqlangan darsliklar yordamida o'tiladi. 1-7-sinflarda darslar haftada bir marta o'quv fanlari qatorida o'tiladi.

Bundan asosiy maqsad o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish, ularni zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazishdir. Musiqiy faoliyat bilan shug'ullanish jarayonida o'quvchida nafaqat musiqiy qobiliyat, balki ovoz, diqqat-e'tibor va ijodkorlik hislari rivojlana boradi. O'quvchilar kasb-hunarga yo'nalib, mehnatga, Vatanga

muhabbat, kattalarga hurmat tuyg'ulari shakllanadi.

Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi. Shu bois prezident tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning biri ham yoshlarning estetik madaniyatini, didini o'stirishga qaratilgan. Ya'ni birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishni ko'zda tutadi.

Yoshlar ma'naviyatini, badiiy didini shakllantirish, estetik tarbiyalash, bolalarni musiqa san'atiga qiziqitirish uchun "Yagonasan, muqaddas Vatan", "San'at g'unchalari", "Xor festivali", "Ona yurt ohanglari", "Nafosat gulshani" kabi respublika tanlovlari o'tkazilmoqda. "Ijtimoiy sohani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarni rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. "Xalqaro maqom festivali", "Xalqaro baxshichilik festivali", "Toshkent bahori" xalqaro opera va balet san'ati festivallari yoshlarning musiqa san'atiga qiziqishini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

CHOLG'U ASBOBLARISIZ MUSIQA DARSİ

Mamlakatimizda musiqa tarbiyasi va musiqa darslariga e'tibor sezilarli darajada kuchaymoqda. Ammo umumta'lim maktablarida fanlarni eskicha o'qitish talabga javob bermay qoldi. Nafaqat chekka viloyatlar, balki poytaxt maktablarida ham zamonaviy texnik vositalar, multimedialar, texnik baza ta'minoti yetarli darajada emas. Maktablarda musiqa darslarini olib borish uchun o'zbek milliy cholg'ulari, fortepiano cholg'u asboblari ham yo'q. Bu o'quvchilarning musiqiy bilimlari egallay o'lmashligiga, musiqaga qiziqishi so'nb borishiga olib kelyapti.

Ayrim umumta'lim maktablarining boshlang'ich (1-4) sinflarida musiqiy bilimga ega bo'lmagan boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi dars bermoqda. Ba'zi maktablarda musiqa darslari "ikkinchi darajali" fan sifatida umuman o'tilmaydi, yo bo'lmasa, dars faqatgina she'r yodlash bilan o'tadi. Bunday ahvolda musiqiy ta'limni rivojlantirib bo'lmaydi, yoshlar baribir hech bir cholg'u asbobini chalishtirish o'rganolmaydi. Oqibatda ular maktabni bitirayotganda "qaysidir musiqa asboblari chalishtirish biladi" tarzidagi yolg'on hisobotlar yuqoriga taqdim etiladi...

**Humayra TO'RAYEVA,
Angren shahridagi
46-maktabning musiqa fani
o'qituvchisi**

DILDAGI GAPLAR


Olamlar tortishuvi

Yarim tun. Hamma uyiga ketgan, men esa yotoqxonada "o'z olami"ning qirollari va hamma narsa bizga yaxshi bo'lishi uchun, deb doim olg'a intilgan insonlar bilan "gaplashib o'tiribman". Ularning aytishicha, biz qo'rqib, "yomon" deb hisoblagan narsalarimiz — bizga intilib, oqibatda muvaffaqiyat, baxt kaliti bo'lishi mumkin ekan.

Keling, ular bilan gaplashib o'rgananglarim, "guvohi" bo'lganlarim haqida siz bilan o'rtoqlasham.

Ulardan biri "Walt Disney pictures" kompaniyasi asoschisi, janob Uolter Elayas Disney. Bilarsiz, turli yo'nalishlarda 26 karraga "Oskar" mukofotini olgan bu janobning multfilmli shu mukofotga eng ko'p erishgani uchun "Ginnesning rekordlar kitobi"ga ham kiritilgan. Bu insonning multfilmli kirib bormagan uy, ularni ko'rmagan inson bo'lmas kerak. O'zim ham ko'raman. Ayniqsa, sichqonlar haqidagi filmlar va "Guffi" obrazini yaxshi ko'raman. Hatto ularning suratini o'z kundalimga chizdirib qo'yganman. Menga janobning bir muxlisi chizib bergan... Qiziq tomoni, janob Uolter hayotda sichqonlardan juda qo'rqqan. Va o'z olamida ularni boshqacha qilib yaratdi, tasvirladi.

Yana bir "suhbatdosh"im — sportchi. 1975-yilgi Uimblon turnirining chempioni — Artur Esh. Bu turnirni yutganlar ko'p-ku, deysizmi? Hayratlanarisi, ushbu turnirda g'olib bo'lgan ilk qora tanli aynan Artur hisoblanadi. Uning menga o'rgatgani, o'rnak bo'ladigan tomoni — hatto o'lim to'shagida bo'lsa ham hech narsadan nolimgani! Artur Esh 1993-yili qon orqali OITS kasalligini yuqtirib oladi. O'lim bilan olishib yotgan Arturga muxlislaridan maktublar kela boshlaydi.



Maktublardan birida shunday savol bor edi:

— Parvardigor nega bunday yomon kasallik uchun seni tanladi?

Championimiz quyidagi mazmunda javob qaytaradi:

— Butun dunyoda 50 million bola tennis o'ynashga qiziqib, uni o'ynay boshlaydi. Ulardan 5 millioni tennis o'ynashni o'rganadi. 500 ming nafari professional tennischi bo'lib yetishadi. 50 ming nafari turli musobaqalarga qatnashadi. 5 ming nafari xalqaro turnirlarda ishtirok etadi. 50 nafari esa, Uimblonga qadar yetib keladi. 4 nafari tennischi yarim finalga, 2 nafari esa, finalga chiqadi... Qo'lmda jahon bo'yicha chempionlik kubogini ko'tarib turib, Parvardigordan "nima uchun men?" deb biror marta so'ramadim. Endi xastalik berganda qanday qilib "nima uchun men?" deb so'ray?!
Meni badiiy kitob o'qishga "majbur qilgan" insonlardan biri Chingiz (Aytmatov) og'a bilan ham "gaplashib turaman". U insonning asarlari butun dunyo bo'ylab



Chingiz Aytmatov.

Oq kema



180 dan ortiq tillarga tarjima qilinib, 80 milliondan ortiq nusxada chop etilgan. Og'aning aytishicha: hech bir narsani "bu menga kerak emas" demasdan, barchasini o'rganib ketaverishim kerak ekan. Kelajakda o'rganayotganlarimdan qay biri menga kerak bo'ladi yoki yo'q, buni bilmayman. Shuning uchun barchasini o'rganishim kerakligini bildim.

Chingiz og'aning asarlari butun dunyoda e'tirof etilishining sababi ham shu. Uning deyarli barcha asarlari negizida afsona, epos va rivoyatlar yotadi. Qolaversa, u dastlab veterinariya sohasida o'qigan. To'g'ri, hayoti davomida biror marta bu sohada ishlamagan bo'lishi mumkin, lekin barcha asarlarida qaysidir hayvonning timsoli mavjud.

Asarlaridagi afsona va rivoyatlarga keladigan bo'lsak, Chingiz og'a bolaligida uyqudan oldin har safar ertak eshitgan... Agar og'a bularni menga nima keragi bor, deb qaraganda edi, balki yozganlari bunchalik kuchli bo'lmay, o'rtamiyona yozuvchi bo'lib o'tarmidi...

Keyingi "suhbatdosh"im — Antuan de Sent-Ekzyuperi. U hayotida uchragan tashvish, qiyinchilik, mag'lubiyatlardan tushkunlikka tushmay, barchasini ijobiy qabul qiladi va butun dunyo bolalariga "Kichkina shahzoda"dek qadrdonni qoldirdi.



Ekzyuperi yoshligida harbiy dengizchi bo'lish uchun litseyda tayyorgarlik ko'rdi. Balki o'shanda sinovlardan o'tganida, uchuvchi bo'lmasdi. "Kichkina shahzoda" asaridagi sahroga qalab tushgan uchuvchi — adibning o'zi. Buni bilaman. Sababi, uning hayoti bilan taqqoslasak, deyarli barchasi to'g'ri keladi. Chindan ham u boshqarayotgan samolyot Afrika sahrolaridan biriga qalab tushgan.

Ba'zan menga shunday tuyiladi: ehtimol, u bumidan narini ko'rolmaydigan, olamda o'zidan boshqa hech kimni ko'rmaydigan insonlar haqida yozgandir: maqtovni yaxshi ko'radigan "yulduz", hammasini hisoblaydigan geograf, faqat buyrug berishni yaxshi ko'radigan qirol...

Inson yolg'iz qolganida butun yashab o'tgan hayotidagilarni o'ylaydi. Kim bilsin, sahroda yolg'iz qolgan Ekzyuperi ham xayolidan o'tkazib tahlil qilgandir..?

E-ey... hozir kim bilan "gaplashganimni" aytсам, meni qip-qizil ahmoqqa chiqarasiz. Axir bu insonning borligini shu paytgacha birgina Maks bilardi. To'g'rida, axir u birorta davlat fuqarosi emas, ota-onasi kimligi noma'lum, quruqlikka, ya'ni biz yashayotgan olamga tushmagan... Labbay, qayerda yashaganini so'rayapsizmi?.. O'z olamida, ulkan "Virjiniya" kemasida! Uning ismi — "1900" (Italiyan rejissyoru Juzeppe Tarnatorining "Pianinochi haqida afsona" filmi bosh qahramoni). Dunyoda tengi yo'q pianinochi! Ajabki, oyoqlari ostidan suv oqib turtmasa, pianino chalolmagan ekan. U ham bir ayolni sevib, bu "olam"ga tushmoqchi bo'ladi. Ammo kema trapida turib, shaharga qaragancha o'ylanib qolgan va...

— ...meni yo'ldan to'xtatgan narsa ko'rganlarim emas, mutlaqo. Meni ko'rmagan narsam to'xtatdi! Bu ulkan shaharda hamma narsa bor. Faqat chegarasi, poyoni ko'rinmasdi. U yo'g'idi. Men dunyoni qayerdan boshlanib qayerda tugashini ko'ra olmadim. Men uning poyonini tasavvurimga sig'dira olmasdim. Mana,



pianino klavishlari boshlanadi va tugaydi. Ular jami 88 ta, ular cheksiz emas. Insoniyatga berilgan imkoniyat cheksiz. Klavishlardan sirg'alib chiqayotgan kuyalar cheksiz. Buni tushunaman. Men faqat shunday yashay olaman. Trapdan tusharkanman, oldimda millionlab, milliardlab, chek-chegarasiz klavishlar paydo bo'ladi. Ular cheksiz, tugamaydigan klavishlar. Klavishlar cheksiz bo'lsa unda o'z musiqangni yaratolmaysan. Bu cholg'u seniki emas. Bu Yaratganning ishi. Ey Xudo, o'sha ko'chalarni ko'rganmisan, minglab ko'chalar, boshing aylanadi! Yerdan qanday yashaysizlar? Dunyoyingiz sizni asir olgan. U hatto o'z chegarasini ko'rsatmaydi. Bir kun kelib uning changalida ado bo'lishing mumkinligidan qo'rqmaysanmi? U rasvo dunyo! Men bir umr kemada yashadim. Meni dunyom o'zim bilan birga o'zgarardi. Unga odamlar chiqib tushishardi. Ularning ham orzu-havaslari bo'lardi. To'g'ri, bu orzular ko'lami kemaiga sig'masdi. Sen o'z baxting haqida jar solishing mumkin. Biroq royal chegarasi bunga yo'l qo'ymaydi. Men shu chegarada yashashni o'rgandim. Quruqlikmi?

Men uchun bu juda katta kema. Sayohatim nihoyatda cho'zilib ketdi. Haddan go'zal ayol, haddan o'tkir atir. Men bu kuyini chalishni bilmayman. Men hech qachon kemani tark etolmaganman. Ammo men o'z hayotimni tark etishim mumkin. Qolaversa, men hech kim uchun mavjud emasman...

"1900" menga bir gap aytdi, dastlab, menga bu g'alati tuyildi. U hech qachon ummon ovoziini eshitmagan ekan. Nahotki?.. Bir umr kemada yashab, ummon ovoziini eshitmaslik mumkinmi? Keyin tushundim: uning o'zi ummon! Fikrlari, muhabbati, hayoti... ummon bo'lgani uchun o'z ovoziini eshitmagan.

Iye, ana, Tesha ham xonaga doimgiday hajviya qilib kirib keldi:

— E, Qo'chqor akani qo'zichog'i, nega o'ylanib o'tiripsan, siqilma, bundan ham battarroq bo'lishi mumkin edi-ku. Boshni ko'tar, egilaverib, yerga kirib ketma tag'in.

Ha, bu mening qadrdon akam — Masxaraboz (Sharof Boshbekov ssenariysi asosida suratga olingan "Masxaraboz" filmi bosh qahramoni). Rosa gurung qildik. Men ham o'rganib oldim g'am-alamni qanday yengishni. Yo'li oson — yig'idan "portlab" ketmaslik uchun, doim kulib yurish kerak ekan.

Uni hech qachon jiddiy bo'lmaydigan, o'z tajribalari bilan u yoq-bu yoqni portlatib yuradigan bir hazilqash yigit deb biladi hamma. Lekin uning dardlari toshga berilsa, erib ketar-ov. Uning jismi biz bilan xolos, ya'ni 60 kilo go'shtni ko'ramiz. Uning olami qanday go'zal ekanini qarang:

— Xayolimdagidagi dunyoda, o'zimni Jamol otam bor, u meni hech qachon tashlab ketmaydi. O'zimni Halima xolam bor, doim atrofimda girdikapalak. U yerda ham Sulton aka bor, u odil, insofli, barchaga barobar. Turg'un bor, u bironing muhabbatiga chang solmaydi. O'zimning Munis opam

bor, ukasi yaxshi ko'rgan qiznikiga birov uchun sovg'i bo'lib bormaydi. O'zimning Qimmatginam bor...

Bu dunyo juda murakkab. Uni tushunish qiyin. Odam qiynalib ketadi. O'zidan boshqani o'ylamaydigan puldordlar, bumidan narini ko'rolmaydigan, faqat topshirib berib, so'kib-so'kib qabul qilib o'ladigan amaldorlar... Xullas, nega undayligini o'ylayverib, oxiriga yetolmaysan, kishi. Maqsadi nima, qayergacha bormoqchi, angolmadim.

Bularni o'ylab, o'zni ado qilgandan nima foyda? Nima qilish kerak, deysizmi? Eng yaxshi yo'li — Disney, Artur Esh, Chingiz og'a, Ekzyuperi, "1900", Masxarabozlar kabi inson o'z olamini yaratishi kerak. Men ham aynan shu uchun yolg'izman-ku.

Ana, tong ham yorishyapti. Bugun hammasidan o'zgacha tun bo'ldi. O'ylab qarasan, men o'z olamimni yaratishga allaqachon ulgurman. Shuncha odamning olamini gapirding, o'zingnikini ham ayt, deysizmi? Yaxshisi, buni keyingi safargi suhbatimga qoldiram.

Bunyod ABDULLAYEV

DINIY TASHKILOTLAR FAOLIYATIGA KO'MAKLASHISH MASALASIDA MUHIM VA FUNDAMENTAL YENGILLIKLAR

Tarixdan ma'lumki, millatning tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi, ma'naviy qadriyatlari o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Milliy qadriyatlarni asrash va xalqning haqiqiy ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan mehr-oqibat, hamjihatlik, o'zaro yordam, keksalarga hurmat, sharqona odob-axloq, sharm-hayo kabi eng oliy insoniy tuyg'ularni ko'z qarachig'idek e'zozlashda din va diniy tashkilotlarning o'ri beqiyosdir.

Mamlakatimizda har bir shaxsning diniy hissiyotlari kamsitilmay, uning vijdon erkinligi, diniy tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslari yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek, diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, diniy ta'lim muassasalarining faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir.

2021-yil 5-iyulda imzolangan O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuniga ko'ra "birgalikda dinga e'tiqod qilish, ibodat qilish, diniy rasm-rusmlar va marosimlarni bajarish maqsadida tuzilgan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan ko'ngilli birlashma diniy tashkilot" hisoblanadi. Ushbu qonun davlat bilan din, diniy tashkilotlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib, diniy tashkilotlarning huquqiy maqomini ham belgilab berdi.

Qonunda diniy tashkilotlarga oid quyidagi yangiliklar kiritildi: Birinchidan, diniy tashkilot tuzish uchun tashabbuskorlar soni 100 nafardan 50 nafargacha tushirildi, ya'ni mahalliy diniy tashkilotlar, jumladan, masjidlar va boshqa konfessiyalarning ibodatxonalarini tashkil etish bo'yicha tashabbuskor fuqarolar soni ikki barobarga kamaytirildi; qonunning 17-moddasiga ko'ra mahalliy diniy tashkilotni o'z tashabbusiga ko'ra tuzayotgan, o'n sakkiz yoshga to'lgan, e'lik nafardan kam bo'lmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari imzolari talab etiladi. Ikkinchidan, diniy tashkilotning markaziy boshqaruv organi va diniy ta'lim muassasalarini tuzish uchun ham 100 nafar tashabbuskor bo'lishi haqidagi talab bekor qilindi. Uchinchidan, diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi yangilashirildi; qonunning

15-moddasiga muvofiq, diniy tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazishda xizmatlar adliya organlarining elektron tizimi orqali ko'rsatiladi. Elektron tizimga kirish elektron raqamli imzo yoki shaxsni identifikatsiyalash imkonini beruvchi boshqa usullari orqali amalga oshiriladi. To'rtinchidan, diniy tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazishda taqdim etiladigan hujjatlar soni qisqartirilib, ularni notarial va boshqa ko'rinishlarda tasdiqlashga oid talablar bekor qilindi, shuningdek, diniy tashkilotni tuzish uchun talab etib kelingan mahalla fuqarolar yig'inlari roziligini olish tartibi ham bekor qilindi. Beshinchidan, diniy tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazishni rad etish asoslari aniq belgilandi; qonunning 22-moddasiga asosan, diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish rad etilgan taqdirda, qaror qabul qilingan

MUNOSABAT

kundan keyin bir ish kuni ichida elektron murojaatni yuboruvchining elektron tizimdagi shaxsiy kabinetiga rad etish asoslari ko'rsatilgan holda xabarnoma yuboriladi. Qonunning 23-moddasida diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazishni rad etish uchun asoslar belgilab berilgan. Oltinchidan, diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha berilgan arizani ko'rib chiqish muddati 3 oydan 1 oyga tushirildi; qonunning 21-moddasiga binonan diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish uchun murojaat olingan kundan e'tiboran bir oylik muddatda ko'rib chiqiladi.

H.TO'YCHIYEVA,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi kafedra mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

MUTOLAA

Mashhur yozuvchilarning stolidagi Kitoblar

Hech o'ylab ko'rganmisiz, butun dunyoga dong'i ketgan yozuvchilar kimning qaysi kitobini sevib mutolaa qilgan? Masalan, Dostoyevskiy "Jinoyat va jazo"ni yozayotganida qaysi asarni o'qiyotgandi? Yoxud Tolstoy Yasnaya Polyana tashkilotidan keyin qaysi kitobni mutolaa qilgan? Hemingueyning adabiyotga qarashlarini butkul o'zgartirib yuborgan kitob qaysi edi? Bu sizga qiziqmi, quyida shunday yozuvchilarning bir nechtasini taqdim etamiz.



Lev Tolstoy — Viktor Gyugoning "Xo'rlanganlar" romani

Lev Tolstoy fransuz yozuvchisi Viktor Gyugoning ijodiga yuksak baho berar

va juda qadrlardi. Uning "Xo'rlanganlar" asarini esa alohida yaxshi ko'radi. O'quvchi diqqat bilan bu asarni o'qigan bo'lsa "Urush va tinchlik" orasidagi — aynan kibor insonlar tasvirida muayyan o'xshashliklarni topa oladi. Tolstoy bu asar haqida shunday degandi: "Viktor Gyugo ulkan quvvatga ega yozuvchi... Haqiqatan ham, uning barcha yozganlari uydima, biroq men baribir uni yaxshi ko'raman, uning o'ziga xos ruhini yaxshi ko'raman".



Ernest Heminguey — Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" romani

Bir qarashda bu ikki yozuvchi orasidagi yaqinlik o'quvchiga hayra-

tomuz ko'rinishi mumkin. Tolstoy "Urush va tinchlik" asarida Hemingueyni ijtimoiy muammolarga qarshi bo'lgan juda qattiq va beshafqat xarakteri bilan lol qoldiradi. Shu jihatdan ularning dunyoqarashi bir-biriga mos tushgan. Heminguey mutolaa jarayonini boksga mengazib shunday degandi: "Men avvalboshda ehtiyotkorlik bilan janob Turgenovni quladim. Keyin esa ko'p qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da janob Mopassan ustidan g'olib keldim. Janob Stendal



bilan ilk jangimiz "0:0" bilan tugadi. Unga so'ngi raundda yaxshigina zarbalar bergan esamda, baribir... Biroq hech qachon, hech narsa meni Tolstoy bilan ringga chiqishga majbur qilolmaydi".





Fyodor Dostoyevskiy — Migel de Servantesning "Don Kixot" romani

Dostoyevskiyning ta'kidlashicha, Servantesning "Don Kixot" asari uning ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Adabiyot muhibi bu qarashdan hayratga tushishi tabiiy. Satira va kinoyaga

to'la Servantes pessimist va g'amgin Dostoyevskiyning qanday ta'sirlantirishi mumkin? Javob juda oddiy. Ya'nikim, Don Kixot har doim qahramonlik orzusi bilan yashagan, ruhan baquvvat va o'ta irodali obrazdir.



Sergey Dovlatov — Anton Chexovning qissa va hikoyalari

Hayotining ko'p qismi xorijda kechgan Sergey Dovlatovning asarlarini bugun, asosan, yoshlar katta qiziqish bilan mutolaa qiladi. Yozuvchining asarlarida murakkablik yo'q. Ya'ni uning yozganlarida bo'y ko'rsatgan yumor

va ochiqlik qanchalik sodda va ravon bo'lsa ham, baribir o'ziga xos.

Dovlatov butun umri davomida o'ziga Anton Chexovning ijodini o'mak bilgan. U yaratgan qahramonlarning real va qiziqarli chiqishida Chexovning qissa va hikoyalari katta ta'sir qilgan.



Stiven King — Uilyam Goldingning "Pashshalar hukmdori" romani

Zamondoshimiz Stiven King sevgan kitoblari orasida Goldingning "Pashshalar hukmdori"ni alohida qadrlaydi. Hatto ba'zi asarlarida bu romandan iqtiboslar ham keltirgan. Yozuvchi ko'pgina suhbatlarda "Pashshalar hukmdori"ni kabi bir roman yozish orzusi-da ekanini aytib o'tadi.

To'plovchi va TOBJOM: Rahmat BARJON

Xayitov Sherzod Yusufovichga Toshkent davlat texnika universiteti tomonidan berilgan 1421 raqamli reyting daftarchasi yo'qolganligi sababli BEKOR QILINADI.

